MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: https://oak.uz/pages/4802

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar

Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ

TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT UNIVERSITETI

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:
Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI 9
Amirov Otabek Xudoyberdi o‘g‘li
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ 14
Маннапова Раъно Аброровна
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELI 22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS 29
Liu Qing
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI 36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA 41
Yorqin Xudoyiberdiev
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI 45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI 53
Xojiyev Ma’murjon Muxsinjon o‘g‘li
HUDUDIY SPORT-SOG‘LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR 62
Misirxonov Habibxon Iskandar o‘g‘li
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA‘MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH 71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO‘YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH 78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH 83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISHNI RAG‘BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH 88
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ORQALI TA’MINLASH 93
Jo‘raxonov Muzaffar Eskandarovich
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI 101
Temirov E.I.
TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSIYALARNING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI TA’SIRINI BAHOLASH 109
Mutorov Ilhom Avazjon o‘g‘li
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI 116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich

TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Moliya va turizm kafedrasi **o‘qituvchisi**,
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ORCID: **0009-0004-9203-9216**
E-mail: sodiqjonziyodullayev9@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarini boshqarishning zamonaviy metodologik va amaliy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning dolzarbligi bank tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari hamda xususiy sektor ulushini oshirishga qaratilgan davlat strategiyasi bilan asoslanadi. **2020–2025-yillarga** mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi doirasida erishilgan natijalar, xususan, bank aktivlarining o‘sish dinamikasi, kredit portfeli tarkibi va likvidlik ko‘rsatkichlari statistik ma’lumotlar asosida baholangan. Shuningdek, aktivlarni boshqarishda qo‘llaniladigan **GAP** tahlili va **Duration** (davomiylik) usullari metodologik jihatdan o‘rganilib, ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida bank aktivlari rentabelligini oshirish, muammoli kreditlar (NPL) ulushini optimallashtirish hamda raqamli texnologiyalar yordamida risklarni samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Statistik tahlillar **2023–2024-yillardagi** Markaziy bank hisobotlari hamda iqtisodiy tadqiqotlar markazlari ma’lumotlariga asoslangan. Olingan natijalar banklarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va aktivlar tarkibini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: bank aktivlari, ALM, likvidlik, kredit portfeli, muammoli kreditlar (NPL), GAP tahlili, Duration, rentabellik, moliyaviy barqarorlik, bank islohotlari.

Аннотация. Проанализированы современные методологические и практические основы управления активами коммерческих банков Республики Узбекистан. Актуальность исследования обусловлена процессами трансформации банковской системы и государственной стратегией, направленной на увеличение доли частного сектора. В рамках стратегии реформирования банковской системы на **2020–2025 годы** на основе статистических данных проведена оценка динамики роста банковских активов, структуры кредитного портфеля и показателей ликвидности. Методологически исследованы методы **GAP-анализа** и **Duration (дюрации)**, применяемые при управлении активами, а также оценены возможности их практического использования. По результатам исследования разработаны научно-практические рекомендации, направленные на повышение рентабельности банковских активов, оптимизацию доли проблемных кредитов (NPL) и эффективное управление рисками с использованием цифровых технологий. Статистический анализ основан на отчетах Центрального банка за **2023–2024 годы** и материалах центров экономических исследований. Полученные результаты способствуют обеспечению финансовой устойчивости банков и оптимизации структуры их активов.

Ключевые слова: банковские активы, ALM, ликвидность, кредитный портфель, проблемные кредиты (NPL), GAP-анализ, Duration, рентабельность, финансовая устойчивость, банковские реформы.

Abstract. The modern methodological and practical foundations of asset management in the commercial banks of the Republic of Uzbekistan are analysed. The relevance of the study is determined by the ongoing transformation of the banking system and the state strategy aimed at increasing the share of the private sector. Within the framework of the **2020–2025** banking sector reform strategy, the dynamics of bank asset growth, the structure of the loan portfolio, and liquidity indicators are evaluated on the basis of statistical data. In addition, the methodological aspects of **GAP analysis** and **Duration** techniques applied in asset management are examined, and their practical applicability is assessed. The findings provide scientific and practical recommendations aimed at improving the profitability of bank assets, optimising the share of non-performing loans (NPL), and enhancing risk management through digital technologies. The statistical analysis is based on the **2023–2024** reports of the Central Bank and data from economic research centres. The results contribute to strengthening the financial stability of banks and optimising the structure of their assets.

Keywords: bank assets, asset-liability management (ALM), liquidity, loan portfolio, non-performing loans (NPL), GAP analysis, Duration, profitability, financial stability, banking reforms.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari nafaqat moliyaviy vositachi, balki butun iqtisodiy tizim barqarorligini ta'minlovchi asosiy subyektlar hisoblanadi. Bank aktivlarini samarali boshqarish ularning likvidliligi, to'lov qobiliyati va rentabelligini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, davlat ulushiga ega banklarni transformatsiya qilish va xususiylashtirish jarayonlari bank aktivlari tarkibini sifat jihatidan yangilashni taqozo etmoqda [1; 12-b.]. Global moliya bozoridagi noaniqliklar va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi aktivlarni boshqarishning an'anaviy usullarini zamonaviy va moslashuvchan metodologiyalar bilan takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF–5992-son[1] Farmoni bilan tasdiqlangan ushbu yo'nalishdagi asosiy dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur strategiyaning asosiy maqsadlaridan biri bank tizimi aktivlarida davlat ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirishdan iborat. 2024-yil holatiga ko'ra, bank tizimi aktivlarining umumiy hajmi 650 trillion so'mdan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yillarga nisbatan barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda [2; 45-b.]. Shu bilan birga, aktivlar tarkibida kredit qo'yilmalarining yuqori ulushi hamda ayrim banklarda muammoli aktivlar (NPL) bilan bog'liq risklarni samarali boshqarish metodologik asoslarni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Aktivlarni boshqarish (**Asset Management**) — bu bank resurslarini shunday joylashtirish jarayoniki, bunda bank o'zining likvidlilik ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda maksimal foyda olishni maqsad qiladi. Mazkur jarayon nafaqat kreditlashni, balki investitsiya portfelini, naqd pul mablag'larini va boshqa moliyaviy vositalarni ham o'z ichiga oladi. O'zbekiston tijorat banklari uchun bugungi kunda foiz stavkalari riski hamda valyuta risklarini samarali boshqarish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli aktivlar va passivlarni integrallashgan holda boshqarish (**ALM — Asset Liability Management**) tamoyillarini chuqur o'rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi [3; 88-b.].

Metodologik nuqtai nazardan, bank aktivlarini boshqarishda resurslar manbalari va ularni joylashtirish muddatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston banklari amaliyotida ayrim hollarda uzoq muddatli aktivlarning (investitsion kreditlar) qisqa muddatli passivlar (omonatlar) hisobidan moliyalashtirilishi likvidlik risklarini samarali boshqarishni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, **2023-yil** yakuni bo'yicha bank tizimidagi jami aktivlarning qariyb **70 foizi** kredit portfeliga to'g'ri kelgan bo'lsa, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar ulushi sezilarli darajada oshib, **32 foiz**ni tashkil etgan [4; 15-b.]. Mazkur holat banklarning chakana xizmatlar bozoridagi faolligi izchil ortib borayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank aktivlarini boshqarish nazariyasi iqtisodchi olimlar tomonidan uzoq vaqtdan buyon o'rganib kelinmoqda. G'arb iqtisodiy maktabi vakillaridan P. Rose va S. Marquis o'z tadqiqotlarida aktivlarni boshqarishni likvidlilik va rentabellik o'rtasidagi doimiy muvozanatni ta'minlash jarayoni sifatida tavsiflaydilar. Ularning fikricha, bank strategiyasi o'zgaruvchan foiz stavkalari sharoitida aktivlar va passivlarning sezgirligini (**sensitivity**) muvofiqlashtirishga qaratilishi lozim [5; 210-b.]. F. Mishkin esa bank aktivlari sifatini baholashda asimmetrik axborot nazariyasini ilgari surib, kredit risklarini minimallashtirishda skoring tizimlarining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Xalqaro amaliyotda aktivlarni boshqarishda qo'llaniladigan **ALM (Asset–Liability Management)** modellari banklarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar, jumladan, Sh. Abdullayeva, A. Karimov va F. Muljanovlar ham tijorat banklari aktivlarini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etganlar. Sh. Abdullayeva o'z ishlarida bank likvidliligini boshqarishda Markaziy bankning prudensial me'yorlariga rioya qilish bilan bir qatorda, banklarning ichki likvidlilik siyosatini takomillashtirish zarurligini ko'rsatib o'tgan [6; 145-b.]. So'nggi yillardagi tadqiqotlarda bank aktivlarini raqamlashtirish hamda masofaviy xizmatlar orqali aktiv operatsiyalarini kengaytirish masalalari alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mahalliy adabiyotlarda bank aktivlari tarkibini diversifikatsiya qilishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va xalqaro moliya bozorlariga chiqish strategiyalarini yanada chuqurroq yoritish imkoniyatlari mavjud. Mazkur tadqiqot ushbu yo'nalishdagi ilmiy qarashlarni boyitishga qaratilgan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi «2020–2025-yillarga mo'ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF–5992-son Farmoni: https://lex.uz/docs/-4811025

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida bank aktivlarini boshqarish samaradorligini baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Birinchi navbatda, miqdoriy tahlil usuli yordamida O‘zbekiston bank tizimining **2020–2024-yillardagi** asosiy ko‘rsatkichlari, jumladan, jami aktivlar, kredit portfeli va kapital monandliligi dinamikasi o‘rganildi. Ma’lumotlar manbai sifatida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari hamda tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlaridan foydalanildi. Shuningdek, banklar faoliyatini guruhlash usuli qo‘llanilib, davlat ulushiga ega banklar va xususiy banklar o‘rtasidagi aktivlar o‘sish sur’atlari qiyosiy tahlil qilindi.

Metodologiyaning muhim qismini **GAP** tahlili (farqlar tahlili) tashkil etadi. Ushbu usul yordamida bank aktivlari va passivlarining foiz stavkalari o‘zgarishiga nisbatan sezgirligi tahlil qilindi. **GAP** tahlili bankning sof foizli daromadi (**NII**) o‘zgarishini prognoz qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, aktivlarning o‘rtacha muddati va qiymatini baholash uchun **Duration** (davomiylik) usuli qo‘llanildi. Mazkur usul bank balansidagi aktivlar va passivlar muddatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni (**maturity mismatch**) aniqlash hamda foiz riskini samarali boshqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilishga yordam beradi [7; 56-b.].

Shuningdek, bank bozoridagi konsentratsiya darajasini aniqlash uchun **Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI)** bo‘yicha hisob-kitoblar amalga oshirildi. Tadqiqotda sifat tahlili usuli sifatida **SWOT-tahlil** ham qo‘llanilib, O‘zbekiston banklarida aktivlarni boshqarishning kuchli va rivojlantirish imkoniyatiga ega jihatlari, mavjud imkoniyatlari hamda ehtimoliy xatarlari baholandi. Barcha hisob-kitoblar va xulosalar **IFRS** xalqaro moliyaviy hisobot standartlari hamda **Bazel qo‘mitasi** tavsiyalariga muvofiq holda amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston bank tizimida aktivlar dinamikasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi besh yilda jami aktivlar hajmi barqaror ravishda o‘sib bormoqda. **2025-yil 1-mart** holatiga ko‘ra, bank tizimining jami aktivlari **648,6 trillion so‘m**ni tashkil etgan. Garchi o‘sish sur’ati o‘tgan yillardagi (**20–30 %**) ko‘rsatkichlarga nisbatan biroz sekinlashib, 15,4 %ni tashkil etgan bo‘lsa-da, bu holat iqtisodiyotdagi real o‘sish va pul-kredit siyosatining takomillashuvi bilan izohlanadi. Aktivlar tarkibining asosiy qismini kredit portfeli egallab kelmoqda va uning ulushi jami aktivlarning taxminan **70,1 foiz**ini tashkil etadi.

Bank tizimida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi aktivlar taqsimoti transformatsiya jarayonlarining izchil amalga oshirilayotganini ko‘rsatadi. Hozirda davlat ulushiga ega **10 ta bank** hissasiga jami aktivlarning **67,4 foizi** to‘g‘ri kelmoqda. Shu bilan birga, xususiy banklarning o‘sish sur’ati (**28 %**) davlat banklariga (**17 %**) nisbatan yuqoriroq ekani bank bozorida raqobat muhiti izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, **TBC Bank**, **Kapitalbank** va **Hamkorbank** kabi xususiy banklar aktivlarini chakana xizmatlar hamda raqamli texnologiyalar hisobiga jadal kengaytirmoqda.

1-jadval.
O‘zbekiston tijorat banklari aktivlarining asosiy ko‘rsatkichlari (2025-yil 1-yanvar holatiga)

Ko‘rsatkichlar	Jami, mlrd so‘m	Davlat banklari ulushi, %	Xususiy banklar ulushi, %
Jami aktivlar	652 157	68,0	32,0
Jami kreditlar	471 406	71,0	29,0
Jami kapital	97 079	65,0	35,0
Jami depozitlar	241 687	51,0	49,0
Sof foyda	12 380	50,3	49,7

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, davlat banklari aktivlar va kreditlar bo‘yicha yetakchi ulushni saqlab qolayotgan bo‘lsa-da, xususiy banklar depozitlarni jalb qilish va foyda olish bo‘yicha deyarli teng ulushga ega bo‘lib bormoqda. Bu holat xususiy banklarning aktivlarni boshqarish samaradorligi izchil ortib borayotganini ko‘rsatadi. Aktivlar rentabelligi (**ROA**) o‘rtacha **2,6 foiz**ni, kapital rentabelligi (**ROE**) esa **14,2 foiz**ni tashkil etmoqda [8; 12-b.].

Aktivlar sifatini baholashda muammoli kreditlar (**NPL**) ulushi muhim indikator hisoblanadi. **2025-yil** boshida **NPL** ulushi o‘rtacha **4–5 %** atrofida saqlanib qolgan. Aktivlar tarkibida likvid aktivlar (naqd pul va Markaziy bankdagi hisobvaraqlar) ulushini saqlash banklar uchun muhim prudensial talab hisoblanadi. Hozirgi kunda banklarning likvidlilikni qoplash koeffitsienti (**LCR**) va sof barqaror moliyalashtirish koeffitsienti (**NSFR**) belgilangan me’yorlardan yuqori darajada saqlanmoqda.

Aktivlarni boshqarishda qo‘llanilgan **GAP** tahlili natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston banklarining aksariyati **ijobiy GAP** holatida, ya’ni foiz stavkalariga sezgir aktivlar (**RSA**) sezgir passivlardan (**RSL**) ko‘proq.

Bu holat bozor foiz stavkalari oshgan taqdirda banklarning sof foizli daromadi o‘sishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasining pasayishi va Markaziy bank asosiy stavkasining pasaytirilishi sharoitida foizli daromadlarni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun aktivlar portfelini o‘zgaruvchan foiz stavkalari ta’siridan himoya qilish maqsadida derivativ moliyaviy vositalardan foydalanish amaliyotini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Aktivlar tarkibida qimmatli qog‘ozlarning ulushi hozirgi kunda **5–8 %** atrofida shakllangan. Rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich 20–25 %gacha yetadi. O‘zbekiston banklari uchun davlat obligatsiyalari va korporativ qimmatli qog‘ozlar bozorida faol ishtirok etish aktivlarni diversifikatsiya qilish hamda likvidlikni boshqarish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aktivlarni boshqarishda raqamli transformatsiyaga investitsiya kiritgan banklar operatsion xarajatlarni **15–20 foiz**ga qisqartirishga erishgan.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklari aktivlarini boshqarishda ekstensiv o‘sish modelidan intensiv rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich o‘tmoqda. **1-jadval** ma’lumotlari bank tizimida konsentratsiya darajasi hali ham nisbatan yuqoriligini (**7 ta yirik bank jami aktivlarning 80 %iga egalik qiladi**) ko‘rsatsa-da, **HHI** ko‘rsatkichining **863 birlik**ka (**2024-yil 2-chorak**) pasaygani raqobat muhitining izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bunday sharoitda banklar uchun aktivlar rentabelligini (**ROA**) barqaror darajada saqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususiy banklarning depozit bozoridagi ulushi **49 foiz**ga yetgani ularning aktivlarini ko‘proq bozor resurslari hisobidan shakllantirayotganini ko‘rsatadi. Bu esa ularning moliyaviy mustaqilligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

GAP tahlili natijalariga ko‘ra, aktivlar va passivlar muddatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash banklar uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Ko‘pgina banklar uzoq muddatli kreditlarni (masalan, ipoteka yoki sanoat kreditlari) qisqa muddatli resurslar hisobidan moliyalashtirmoqda. Mazkur holat likvidlik risklarini samarali boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari **Duration** (davomiylik) usulini kengroq qo‘llash orqali aktivlar qiymatining foiz stavkalariga nisbatan elastikligini kamaytirish mumkinligini ko‘rsatdi. Shuningdek, **NPL** darajasini samarali boshqarish maqsadida banklar kreditlash jarayonida nafaqat ta’minotga, balki qarz oluvchining pul oqimlari (**cash flow**) tahliliga ham alohida e’tibor qaratishlari maqsadga muvofiq.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi aktivlarni boshqarishning yangi metodologik yo‘nalishlarini shakllantirmoqda. Bugungi kunda mikrokreditlar va onlayn overdraftlar aktivlar tarkibida sezilarli ulushni egallamoqda. Ushbu aktivlar yuqori rentabellik salohiyatiga ega bo‘lishi bilan birga, risklarni samarali boshqarishni ham talab etadi. Shu sababli banklarda sun’iy intellektga asoslangan risk-menejment tizimlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, **ESG (Environmental, Social and Governance)** tamoyillarini aktivlarni joylashtirish jarayonida hisobga olish xalqaro investorlarni jalb etish hamda bank tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, O‘zbekiston bank tizimi aktivlari barqaror o‘sish sur’atlarini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, aktivlar tarkibida davlat banklarining ulushi salmoqli o‘rinni egallab kelmoqda. Islohotlar doirasida xususiy sektor ulushini yanada kengaytirish hamda davlat banklarini xususiylashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish bank bozorida sog‘lom raqobatni rivojlantirish va aktivlarni boshqarish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, banklarda aktivlar va passivlar muddatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlikni (**mismatch**) kamaytirish maqsadida **Duration** va **GAP** tahlili kabi zamonaviy usullardan foydalanish ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq. Mazkur yondashuv banklarga foiz stavkalari o‘zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy ta’sirlarni oldindan baholash va samarali boshqarish imkonini beradi. Shuningdek, Markaziy bank tomonidan ushbu usullarni prudensial hisobot tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, aktivlar sifatini yanada yaxshilash va **NPL** darajasini samarali boshqarish maqsadida banklar kredit risklarini baholashda zamonaviy skoring modellari hamda sun’iy intellekt texnologiyalaridan kengroq foydalanishlari maqsadga muvofiq. Shuningdek, aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish maqsadida banklarning qimmatli qog‘ozlar bozori va xalqaro moliya bozorlaridagi faolligini kengaytirish hamda investitsiya portfeli ulushini **15–20 foiz**gacha oshirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

To‘rtinchidan, banklar o‘z aktivlarini boshqarish strategiyasini **ESG (Environmental, Social and Governance)** mezonlari asosida takomillashtirishlari maqsadga muvofiq. **«Yashil iqtisodiyot»** loyihalarini moliyalashtirish nafaqat ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlashga, balki banklar uchun barqaror va istiqbolli

aktivlar bazasini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Raqamli transformatsiya jarayonlari esa operatsion samaradorlikni oshirish hamda mijozlarga yo‘naltirilgan aktiv operatsiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining **2019-yil 29-oktabr**dagi «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi O‘RQ–580-son Qonuni.: https://lex.uz/ru/docs/-4581969
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2020-yil 12-may**dagi «2020–2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–5992-son Farmoni.: https://lex.uz/docs/-4811025
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomi. – № 2696. : https://lex.uz/docs/-2703053
4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. **2023-yil uchun yillik hisobot va statistik byulleten.** – Toshkent, 2024.
5. Rose P. S., Marquis M. H. *Money and Capital Markets.* – 11th ed. – New York : McGraw-Hill/Irwin, 2011. – 744 p.
6. Mishkin F. S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets.* – 12th ed. – Pearson, 2018. – 720 p.
7. Abdullayeva Sh. Z. *Bank ishi : darslik.* – Toshkent : Iqtisod-moliya, 2017. – 624 b.
8. Karimov A. K. Tijorat banklari aktivlarini boshqarishning metodologik jihatlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar* ilmiy-elektron jurnali. – 2022. – № 3. – B. 12–18.
9. MORS Software. *Asset Liability Management Trends in 2024.* – Available at: https://morssoftware.com/blog/alm-trends-2024 (accessed: 06.08.2026).
10. Center for Economic Research and Reforms (CERR). *O‘zbekiston banklarining 2024-yil I chorak reytingi.* – Available at: https://review.uz/oz/post/bank-activity-index-q1-2024 (accessed: 06.08.2026).
11. International Monetary Fund (IMF). *Republic of Uzbekistan: 2024 Article IV Consultation.* Country Report No. 24/210. – Washington, DC : IMF, 2024.
12. Muljanov F. *Bank risklarini boshqarish : o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent : Moliya, 2020. – 240 b.
13. Basel Committee on Banking Supervision. *Basel III/IV Standards.* – Basel : Bank for International Settlements (BIS).
14. PwC Uzbekistan. *Banking Sector Survey 2023: Insights into Transformation and Digitalization.* – Tashkent : PwC Uzbekistan, 2023.
15. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. *O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati to‘g‘risidagi hisoboti. 2023-yil yanvar–dekabr.* – Toshkent, 2024.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100